



## RESPUBLIKADA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH VA SOXANING IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.

Olimjonova Gavxaroy Maxmudjonovna

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” kafedrasи assistenti

[oqavxaroy87@gmail.com](mailto:oqavxaroy87@gmail.com)

Xabibullayeva Layloxon Avazbek qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti Turizm ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Xozirgi kunda turizm iktisodiyotining muxim sektori sifatida jadal rivojlanib bormokda. Chunki, turizmdan olinadigan daromad ko‘plab soxalardan ko‘ra ko‘proq bo‘lishini rivojlangan mamlakatlardagi statistik ko‘rsatkichlar ifodalamoqda. Turizm shunday soxaki, unda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xizmat ko‘rsatish orqali daromad olinadi. Ushbu soxada biror maxsulot emas, aynan xizmatlar sotiladi. Xizmatlarning istemol jarayoni ayni ko‘rsatilgan ondan boshlab amalga oshadi.

**Kalit so‘zlar.** Agroturizm, mexanizm, samaradorlik, konseptsiya, ilg‘or texnologiya, drayver, sayyoxlik.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq turizm sohasini davlat tomonidan qo‘llab – quvvatlash, mazkur soha bilan shug‘ullanuvchi korxonalarga imtiyozlar yaratib berish, shuningdek, turizm sohasi uchun infratuzilmani shakllantirish borasidagi ishlar jadal sur’atlar bilan davom ettirilmoqda. SHuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston 1993 yil 4 oktyabrda Butunjahon turizm tashkilotiga Markazi Osiyo davlatlari orasida birinchi bo‘lib a’zo bo‘ldi. Bu o‘z navbatida O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlanterish ishlariga katta ijobjiy turtki berdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 5 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlanterishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF 5611 sonli qarorida “2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlanterish Konsepsiysi”ga muvofiq yevropa va Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari bilan tovar aylanmasi, tashiladigan yo‘lovchilar soni va investitsiyalarni ko‘paytirish uchun respublikadagi transport aloqa tizimini tubdan yaxshilash maqsadida xorijiy aloqalarni yanada mustahkamlashga alohida e’tibor berildi.

Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport yunalishlarida infratuzilmani jadal rivojlanterish, obektlardan samarali foydalanish, axoliga kulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 apreldagi ”Turizm sport va madaniy meros soxalarida davlat boshkaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6199-sen Farmoni xamda 2021 yil 6 apreldagi ”Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PK-5054-sen karori.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi ”O‘Zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlanterishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi



PF-5611-son Farmoni ga asosan "2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish" Konsepsiysi tasdiqlangan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-son qarori qabul qilindi.

Shuningdek, qarorda 2022-yil 1-yanvagdan uyali aloqa opegatoglagi uchun uyali aloqa xizmatlariga solinadigan aksiz solig'i stavkasini 10 foiz etib o'rnatish, 2022-yil 1-apreldan boshlab qishloq joylagda antenna-machta metall konstruksiyalarini, ularga o'rnatilgan va ularning ajralmas qismi bo'lgan konstruksiyalar hamda ular egallagan yer uchastkalarini yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan va yuridik shaxslaráan olinadigan yer solig'idan ozod etish belgilandi.

Ushbu qarorga sosan Vaziglag Mahkamasining 2022-yil 8-noyabrdagi "Chet davlat fuqarolari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketishda avval xarid qilingan tovagliar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 653-son qarori qabul qilindi.

Qarogga asosan, 2023-yil 1-yanvagdan boshlab chet davlat fuqaralariga ular tomonidan O'zbekiston hududidagi chakana savdo bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlaridan ayrim turdag'i tovarlarni sotib olishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini qisman qaytarish tizimi joriy etilishi belgilandi.

Ushbu amaliyot turizm rivojlangan bir qatog chet el mamalakatlari, jumladan Fransiyada joriy etilgan bo'lib, sayyoohlarga yanada qulaylik yaratish, mamlakatga sayyoohlar qiziqishini oshirish va shu orqali sayyoohlar oqimini ko'paytirishda ancha samarali hisoblanadi.

Yuqogidagi nogmativ huquqiy-hujjatlagda sayyoohlarga keng qulayliklar yagatishga, turizm sohasini jadal rivojlantirishga qaratilgan ko'plab chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, ushbu choga-tadbiglag amaliyotda o'zining ijobiy natijalarini begishi va shu orqali sayyoohlag oqimini ko'payishiga, malakat taraqqiyoti, logistika, mehmonxona, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalar rivojiga sabab bo'ladi.

"Respublikamizda turizmni rivojlantirish juda katta iqtisodiy samara berishi hammamizga ayon, chunki u xorijga resurs chiqarmay (paxta, gaz, neft) valyuta olib kirish imkonini beradi. Tahlillar shundan dalolat beradiki, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda turizmdan keladigan daromad boshqa sohalarga qaraganda ancha ko'proq valyuta tushumlarini keltiradi. Masalan: Turkiya yiliga 4-5 mlrd. dollarlik tovar eksport qilsa, turizm faoliyatidan 10 mlrd. dollardan ortiq daromad oladi. Avstriya, Angliya, Italiya, Frantsiya, Ispaniyalarda ham xuddi shunday yuqori ko'rsatkichlarni ko'rishimiz mumkin. Mazkur soha kuzatuvchilari sayyoohlilik va turizm iqtisodiy rivojlanishning drayveri – harakatlantiruvchi kuchi ekani haqida yakdil fikr bildirmoqda, ushbu sohalar yangi ish o'rninliga zamin yaratish barobarida (ICAO ma'lumotiga ko'ra, 2017 yilda har 10 ish o'rnining bittasi shu sohaga tegishli bo'lgan) ijtimoiy rivojlanishga katta hissa qo'shadi.



Turizm xizmat ko'rsatishga asoslangan iqtisodiyotni yaratish va rivojlantirishni rag'batlantiradi. Ushbu faoliyat doirasi Toshkentdagi yirik mehmonxonalardan tortib, Samarqanddagi kichik xostellar, xalqaro aeroportlardagi butiklar, Buxoro va Xivaning xushmanzara ko'chalaridagi kichik hunarmandchilik do'konlarigacha bo'lgan qamrovni qamrab oladi. U insonlarda iqtisodiy ko'nikmalarni oshiradi, bilim ufqlarini kengaytiradi. Bugungi kunda aksariyat mamlakatlarda, jumladan, eng rivojlangan 10 ta mamlakatda butun sa'yharakatlar chet ellik sayyoohlarni jalb etishga qaratilmoqda. Turizm rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, ayniqsa, pul oqimini oshirishda foydali bo'lishi hammaga ma'lum.

Keyingi paytlarda xukumatimiz turizm soxasini rivojlantirishga katta etibor berilmokda. Bu soxa iktisodiyotning ustuvor tarmog'i darajasiga chiqdi. Xukumat tomonidan soxa oldiga qo'yilayotgan vazifalarni bajarish esa birinchi navbatda qadrlar saloxiyatiga borib taqaladi.

Bundan tashqari xalqaro turizmning xozirgi davr talablari xam bu soxada qadrlarga bo'lgan talabni yanada oshirib yubormoqda. Xozirgi zamon iqtisodiyotida turizm ashaddiy raqobat maydoniga aylangan soxalardan biri xisoblanadi. Planeta O'zbekistondek go'zal tabiatga ega tarixiy obidalarga boy yurtlar anchagina, shuning uchun chet eldan turistlarni ko'plab miqdorda jalb qilish oson emas, buning uchun bozorni jumladan turizm bozorini yaxshi biladigan malakali mutaxassislar kerak.

Hozirgi vaqtida butun dunyoda, jumladan O'zbekistonda ham iqtisodiyotining noishlab chiqarish soxalaridan biri xususan turizm soxasiga katta e'tibor kuchayib bormoqda. Insonlar borgan sari o'zlarining bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishga, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyoni, xalqlarning urf odatlarini, qadriyatlarini bilishga intilmoqda. Bundan tashqari, insoniyat har doim o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. XX asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizm industriyasining rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. O'tgan 2004 yilda dunyo aholisining har to'rtinchisi sayohat qilganlar. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o'sish sur'ati 8-10 % gacha boradi. Bu davlatlarga Ispaniya, Italiya, Fransiya, A+SH va boshqa mamlakatlarni kiritish mumkin. Shunisi qiziqli turizm rivojlanishi bilan bir qatorda transport, bozor infratuzilmasi, savdo sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik hamda boshqa xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanib ketadi. Respublikamiz xalqaro turizmni rivojlantirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega. Bularga «Buyuk Ipak Yo'li»ning shox tomiri respublikamizdan o'tganligi, butun dunyoga mashxur tarixiy va madaniy shaxarlarmiz Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, qo'qon, Toshkent va boshqa shaxarlar, tabiiy va sog'lomlashtirish resurslariga boy mintaqalarimiz Chimyon, Shoximardon, Zomin, Boysun, SHerobod va boshqa shaxarlar kiradi. Hozirgi kunga kelib O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun asos solindi deb hisoblasa bo'ladi. Bunga dalil sifatida 1995 yilda «Buyuk Ipak yo'li»ni qayta tiklashda O'zbekiston respublikasining faol qatnashishi va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish to'g'risida»gi farmonining Prezidentimiz tomonidan qabul qilinishidir. Bu farmonga binoan turistik korxonalar bir qator soliq imtiyozlarga ega bo'lishdi. Bu farmon «Buyuk Ipak yuli»da joylashgan tarixiy va madaniy shaxarlarda turistik yo'nalishlarning rivojlanishiga



turki bo'ldi. Ming yillar davomida «Buyuk Ipak yo'li» Osiyo va Yevropa xalqlarini birlashtirishning ahamiyatli va samarali usuli hisoblanib kelgan. Xuddi shu yo'l bo'ylab tovarlar, bilimlar, texnologiyalar, madaniyatlar almashuvi amalga oshirilgan,

O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanishi haqida gapirar ekanmiz, mamlakatning asosiy turizm rayonlariga bo'linishi xususida to'xtalib o'tish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda Respublikada to'rtta asosiy turistik mintaqalar mavjud bo'lib, ular Farg'ona, Samarqand-Buxoro, Toshkent va Xorazm turizm mintaqalaridir. Farg'ona turizm mintaqasi Farg'ona vodiysini o'z ichiga qamrab oladi. Uning turistik resurslari arxeologik qazilmalar va me'morchilik obidalari, qulay tabiiy sharoitlar, an'anaviy xalq hunarmandchiligi va san'ati mahsulotlari, sanoat va agrar komplekslardan iborat. Bu yerda avtomobil va temir yo'llarning keng tarmog'ini mavjudligi ham Farg'ona mintaqasidan turizm maqsadlarida foydalanishga, uning butun hududida turizm bazalari va dam olish maskanlarini joylashtirishga imkoniyat yaratadi. Toshkent turizm mintaqasi kelgusida turizmnинг barcha turlarini rivojlantirish uchun universal imkoniyatlarga egadir. Mazkur turizm rayonidagi madaniyat yodgorliklari, poytaxt viloyatining bugungi hayoti, qurilishlar, yangi shahar va qishloqlar, zamonaviy madaniyat, mintaqaning tabiatni, boy landshafti, rang-barang o'simlik va hayvonot dunyosi uning diqqatga sazovor bo'lishiga sabab bo'ladigan muhim omildir. Avtomobil va temir yo'llari tarmog'i Toshkent turizmi mintaqasidagi turizm markazlarini bir-biri bilan bog'laydi hamda shahar atrofidagi temir yo'l va avtomobil turizmini rivojlantirishga imkon beradi. Samarqand-Buxoro turizm mintaqasi Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarini o'z ichiga qamrab oladi. Samarqand va Buxorodagi butun dunyoga mashhur me'morchilik obidalari ushbu mintaqadagi turizmni rivojlantirilishiga asos hisoblanadi. Bundan tashqari, Zarafshon daryosi orqali o'tuvchi temir yo'l va keng tarmoqdagi shosse yo'llari, Zarafshon tog' tizmasi orqali o'tgan unchalik baland bo'limgan dovonlar va yaxshi trassalar mintaqada turizmni rivojlantirish uchun g'oyatda qulay omil hisoblanadi. Xorazm turizm mintaqasining salohiyati asosan Xivaning Ichan +al'a qo'riqxonasida joylashgan va jahonda misli yo'q g'oyatda boy tarixiy-me'morchilik yodgorliklariga tayanadi. Faoliyat ko'rsatayotgan turizm mintaqalari bilan bir qatorda yana istiqbolli mintaqalar mavjud bo'lib, ular Jizzax, +arshi-Termiz va O'rta-+oraqalpoq mintaqalaridir. Kelajakda bu mintaqalardagi mavjud imkoniyatlarning rivojlantirilishi mamlakatimizda turizm xizmatlari bozorini yanada kengayishiga olib kelishi mumkin.

Har qanday sharoitda, xususan, o'tish davrida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat asosiy rol o'ynaydi. Deyarli barcha davlatlar milliy iqtisodiyotida turizm tarmog'ining ahamiyatini oshirishga harakat qilishadi. Chunki, turizm milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda quyidagi ustuvorliklarga ega: mahalliy ishchi kuchlarini malakali mehnat va yashash sharoitlari bilan ta'minlash manbai; bozorni shakllantirish hamda kapital investitsiyalarning oqib kelish mexanizmi; qurilish (mehmonxonalar, kempinglar, motellar), kommunikatsiya (uyali, tele va optik aloqa), transport (avtomobillar, avtobuslar, xalqaro andozolardagi temir yo'l vagonlari, samolyotlar), shuningdek xizmat ko'rsatish



infratuzilmasi (avto yoqilg'i quyish stansiyalari) kabi sohalarga yangi texnologiyalar va nouxau joriy etish vositasi; milliy xalq hunarmandchiligin rivojlantirish vositalari; mamlakatda va hududda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy holatni barqarorlashtirish omillari; tarixiy yodgorliklar va madaniy merosni asrash usullari; davlatning valyuta daromadlarini samarali oshirish vositalari. Umuman olganda, davlat turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun uning huquqiy va iqtisodiy asoslarini yaratadi, bu soha uchun kadrlar tayyorlash masalasini yo'lga qo'yadi, viza rejimini soddallashtir adi, turistik mahsulotlar va an'anaviy tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantiradi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida turizmning milliy modelini shakllantirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Ushbu modelda ta'kidlanishicha mamlakatda rivojlantirilayotgan turistik bozor boshqa har qanday bozorlar kabi mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatiga ta'sir ko'rsatadi. U mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda investitsiya va kapital oqimini ta'minlash darajalarini aniqlashda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyotii rivojlangan mamlakatlarda, asosan, xususiy va tijorat kompaniyalari turistlarga xizmat ko'rsatadi. Biroq, har qanday sharoitda ham davlat optimal iqtisodiy va huquqiy zamanni yaratgan taqdirdagina turizm rivojlanishi mumkin. Agarda davlat kasbiy tayyogarlik masalalari, tabiiy va madaniy muhitni muhofaza etish, axborot-reklama ishlari va rasmiyatchilikni soddallashtirish kabilar bilan shug'ullanmasa, u holda turizm kutilganidek rivojlanish darajasiga erisha olmaydi. Bunda davlat tomonidan turizmni rivojlantirish, turistik xizmatlar bozorini shakllantirish, iqtisodiy tartibga solish usullari va richaglarini qayta isloh etish, turizmni tashkiliy boshqaruvi strukturalarini takomillashtirish, uning eksport salohiyatini oshirish va eng asosiysi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kabilarga tegishli uslubiy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda bir qator mamlakatlar YaIDning salmoqli ulushi ichki va tashqi turizm sohasiga to'g'ri keladi. Turizm boshqa sohalar kabi ortiqcha ish va xarajatlar talab qilmaydigan va shu bilan birga ancha samaralai daromad keltiruvchi soha hisoblanadi.

Shunisi e'tiborliki, turizm rivojlanishi o'z o'nida transport, bozor infratuzilmasi, qurilish savdo-sotiq kabi sohalarni rivojlanishiga omil bo'lib xizmta qiladi.

Shuning uchun ham bugungi kunda ko'plab malakatalar tomonidan turizm sohasini rivojlantirish borasida islohotlar chora tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu singari yurtimizda ham turizmning milliy modelini shakllantirish bo'yicha bir qator maqsad va vazifalar belgilangan bo'lib, bunda turistik bozor mamlakatning ijtimoiy -siyosiy va iqtisodiy vaziyatiga ta'sir ko'rsatadigan hamda boshqa davlatlar bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, o'zro muloqot almashish va shu orqali mamlakatga investitsiya va kapital oqimini oshirishning vositasi sifatida qaralmoqda.



O'zbekiston o'zining boy madaniy tarixiga egaligi bilan boshqa mamlakatlardan ajralib turadi. Mamlakatda ko'plab ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar mavjud bo'lib, respublikaning ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha salohiyati yuqori hisoblanadi.

Bundan tashqari, «Buyuk Ipak yo'li» loyihasi ko'plab davlatlarni hamda xalqaro tashkilotlarni qiziqtirib, 1994-yildan boshlab Butunjahon Turistik Tashkiloti «Buyuk Ipak yo'li» loyihasini jahon hamjamiyatiga faol targ'ibot qilib kelmoqda.

Bugungi kunda respublikada to'rtta asosiy turistik mintaqqa mavjud bo'lib, ular Farg'ona, Samarqand - Buxoro, Toshkent va Xorazm turizm mintaqalaridir. Farg'ona turizm mintaqasi Farg'ona vodiysini o'z ichiga qamrab oladi. Uning turistik resurslari arxeologik qazilmalari va me'morchilik obidalari, qulay tabiiy sharoitlar, an'anaviy xalq hunarmandchiligi va san'ati mahsulotlari, sanoat va agrar komplekslardan iborat.

Mamlakatning turizm salohiyatidan unumli foydalanish, sohani yanada rivojlantirish, sayyoohlarni yurtimizga keng jalb qilish maqsadida yurtimizda ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

### Foydalanimanligi adabiyotlar

#### Meyoriy xujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-sun qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vaziglag Mahkamasining 2022-yil 8-noyabrdagi 653-sun qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sun Farmoni ga asosan "2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish" Konsepsiysi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 apreldagi PF-6199-sun Farmoni xamda 2021 yil 6 apreldagi "Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PK-5054-sun qarori.